

ILM ZIYOSI



[@tdtuofuz](#) tdtuofuz +998 93 544 96 94 +998 93 188 77 79

"Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!"

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING
33 YILLIGI**



3 - SAHIFA

Mustaqillik imorati

4 - SAHIFA
TA'TIL — YANGI KO'NIKMALAR

VA YUTUQLAR UCHUN IMKON

**TALABALARGA MUVAFFAQIYATLI O'QISH UCHUN TAVSIYALAR:
SAMARALI TA'LIM YO'LIDA**

2-3- SAHIFALAR

KELAJAK SARI BIRINCHI QADAM

5 - SAHIFA

6 - SAHIFA
Kitobxonlik

TALABALARGA MUVAFFAQIYATLI O'QISH UCHUN TAVSIYALAR: SAMARALI TA'LIM YO'LIDA



Sessiya. Auditoriya va kafedra eshigi yonida gavjum talaba. Ichkarida talabalarga tushuntirib, ularni ishlarini qabul qilishdan charchagan, so'lg'in chehrali professor-o'qituvchilar. Darhaqiqat, sessiya nafaqat talabalarni, balki, o'quv semestri davomida "o'qi" deb, o'qita olmagan ustozlarni charchatadigan vaqt. 80 daqiqalik dars jarayonida bitta yangi bilimni o'zlashtira olmayotgan talaba yoxud bu vaqtdan unumli foydalana olayotgan yoshlarimizga yangi o'quv yili avvalida, yosh bo'lsa-da, tajribali, bugungi kun yoshlari bilan tillasha oladigan, fikrlari teran, ilmga intiluvchan professor-o'qituvchilarimizdan tavsiya.



Nosirov Nurzod Ixtiyorovich
Metallurgiya va kimyoviy texnologiyalar fakulteti, Dekan muovini

Grant va kontrakt: ta'limda raqobatbardoshlikni oshirish yondashuvlari

Ma'lumki, davlat granti kvotalarining oliy ta'lim tashkilotlari kesimida taqsimoti tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan abituriyentlarning tanlovi va to'plagan ballariga ko'ra amalga oshirilishi belgilandi. Bunda bakalavriatga qabul qilingan talabalarga ta'lim granti bir o'quv yili uchun ajratiladi.

Ya'ni, ta'lim granti birinchi kursda oliy ta'lim tashkilotlariga ajratilgan davlat buyurtmasi kvotasiga muvofiq kirish imtihonlarida yuqori ball to'plagan talabalarga ajratilsa, ikkinchi va undan keyingi kurslarda yuqori akademik reyting ko'rsatkichlariga erishgan va ijtimoiy faol talabalar orasida oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan tabaqalashtirilgan tartibda qayta taqsimlanadi.

Talabalar uchun yangi imkoniyatlar

Bu nima degani? Bizda grantlarga «tekinxo'r» sifatida qaralib kelinadi. Talabalik vaqtimizda grant o'qiyotganlar bitta fanni yopolmasa, "A" shakl yoki "B" shakldan qolib ketsa, 6 oylik stipendiya ololmas edi. Hozirda talabalarga yanada yaxshiroq sharoit qilinib, grantni kontraktga tushirishni amalda tatbiq qilishni boshladi. Maqsad – talabani yanada yaxshi o'qishini ta'minlash. Misol uchun, kontraktga o'qiyotgan talabani bilim, grantda o'qiyotgan talabanikidan kuchliroq bo'lishi, omadi kelmay, kontraktga tushib qolgan bo'lishi mumkin. Ayrim talabalarining omadi kelib, grantga kirib olib, keyinchalik o'qimay qo'yish holatlari ko'p uchraydi. Talaba qachon kuchli bo'ladi, qachonki yaxshi o'qisa, undan kuchli kadr chiqadi. Yaxshi o'qigan talabaga esa rag'bat kerak.

Ijobiy va salbiy ta'sirlar

Kontraktga tushib qolgan va a'lo bahoga o'qiyotgan talaba uchun kontraktga grantga o'tishi, bu juda yaxshi samara

beradi. Men bu qarorni to'liq qo'llab-quvvatlayman. Bu narsa talaba uchun ham juda manfaatli. Buning uchun talaba nima qilish kerak? Haftada 5 kun dars kunlari. Maksimal 30-36 soat o'qiydi. Ularda yana shanba, yakshanba bor. Shuningdek, 5 kun o'qish kunlari darsdan keyingi vaqtlarda ham kutubxonaga kirish yoki o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarishga talabada imkon bo'ladi. Buning uchun o'zlariga haftalik reja qilib olishlari ham mumkin. Bu hafta matematikani, kelasi haftada fizikani, keyin esa mustaqil ishlarimni topshiraman deb reja qilishlari o'zlariga juda katta foyda beradi.

Talabalarning eng katta xatosi- dars vaqtida undan unumli foydalanmaydi. Masalan, amaliyot vaqtida o'qituvchida talabani baholash imkoni ko'p bo'ladi. Afsuski, aynan shu vaqtda talabalar ko'p qochishadi. Amaliyot yoki laboratoriya jarayonining 40 daqiqasida o'qituvchi dars o'tsa, qolgan vaqtda talabani baholaydi. O'sha vaziyatda talaba bahosini o'z vaqtida olsa, unda muammo bo'lmaydi. Sessiyagacha kerakli ballni to'play oladi. Yana bitta narsa borki, birinchi topshirgan talaba boshqalardan doim bir ball yuqori yuradi. Chunki bu talaba harakat qilayapti, degan qarash mavjud.

Joriy yilgi kontraktidagi 1-bosqich talabalari harakat qilishsa, grant bo'lishlari mumkin. Bu degani, u ota-onasiga avvalgi o'quv yilining kontrakt miqdorida 6 mlndan ko'proq pul olib kelayapti, aslida 13 mlndan ziyod, degani. Ya'ni, grantga o'tsa, ota-onasi to'lashi kerak bo'lgan pul yonlariga qolishi bilan birga, talaba stipendiya ham olayapti.

Hozirgi talabalar hayoti misolida oladigan bo'lsak, 600 000 stipendiya bilan yashasa bo'ladi. Yotoqxonada turadigan talaba 200 atrofida yotoqxonaga to'lasa, qolganini kunlik va haftalalik xarajatlarga yetkaza oladi.

Kontraktga o'qiyotgan talaba grantga o'tish uchun tinmay o'qishi, harakat qilishi mumkin. Grant o'qiyotgan talaba bu vaziyatga jim qarab tura olmaydi. Chunki uning imkoniyatini kontraktga o'qiyotgan talaba egallab olish ehtimoli yuqori bo'lgan bunday vaziyatda, u ham o'rmini saqlab qolish uchun yaxshi o'qishga harakat qiladi.

Afsuski, bu vaziyatning minusi ham bor. Bu korrupsion hollarni yuzaga keltirishi ham mumkin.

Stipendiyasiz kontrakt talabani o'qituvchiga qaramligini kamaytirgan edi. Lekin grantdan kontraktga tushish yoki aksincha kontraktga grantga o'tish holatida talabani yana o'qituvchiga nisbatan qaramligining oshishi ehtimoli mavjud.

Ilmga intilish va muvaffaqiyat yo'lidagi dastak

Talabalarga tavsiya sifatida birinchi o'rinda aytadiganim, kredit modul haftaligi davomida fanlarni tushuntirishga kirgan professor-o'qituvchilardan to'laqonli ma'lumot olishlari kerak. Talabalar uchun ustozlardan nima talablar qo'yiladi? 3,4,5 baho olish uchun qanday vazifalarni bajarishlari kerak?

Har bitta fandan beriladigan vazifalar muddati, sifat darajasi

qanday bo'lishi kerak, shular haqida fan o'qituvchisidan to'laqonli ma'lumot olishlari lozim. Bu talabalar tomonidan qo'yiladigan ilk qadam bo'lib, ayniqsa, a'lo bahoga o'qish istagida bo'lganlar bu narsalarni bilib olishlari shart.

Ikkinchi o'rinda, nafaqat o'qish, balki kafedra yoki filial ijtimoiy ishlarida faol qatnashishi talab qilinadi. Chunki talabani bilim darajasida ozgina kamchilik bo'lsa, kafedra yoki filial tomonidan professor-o'qituvchi va rahbarlar filialga qo'shgan hissasini inobatga olgan holda ularga bir

tomonlama yordam berishlari mumkin. O'qituvchi tomonidan berilgan vazifalarni iloji boricha sessiya haftaligiga yaqinlashmasdan avval fanlarni yopishga harakat qilish kerak. Bu bilan ular o'zlariga qo'shimcha vaqt qoldiradi. Masalan, bitta sessiyada 5 ta fan bo'ladigan bo'lsa, sessiya vaqtdan avval shularning 2-3 tasidan yuqori ball to'plashi, qolgan fanlardan tayyorlanish va kamchiliklarini to'ldirib, a'lo baho olish imkonini beradi.

Talabadan talab qilinadigan esa hamma narsani o'z vaqtida bajarish.



Doston Mirzavaliyev,
Metallurgiya muhandisligi kafedrasi assistenti



Abduaziz Abdulkaxxarov,
Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrasi assistenti.

Muvaffaqiyatga erishish uchun mas'uliyatli bo'lish

Talabalar yaxshi o'zlashtirishi, sessiya vaqtida qiynalmasliklari uchun ularga bir qancha tavsiyalarni aytish mumkin. O'zimni kuzatishlarim, katta bo'lmagan tajribamga asoslanib shuni aytishim mumkinki, talabalarning aksariyatida mas'uliyatsizlik mavjud bo'lib, berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish yoki belgilangan muddatdan ancha o'tkazib topshiriqlarni bajarish holatlari

kuzatiladi.

Talabalardagi mas'uliyatsizlik va uning oqibatlari

Talabalarda shunaqa fikr bor va bu qaysidir ma'noda o'zini oqlayotgani, o'z tasdig'ini topayotgani uchun talabalar yuqoridagi kamchiliklarga yo'l qo'yishmoqda. Ya'ni, men taxminan 200 nafar talabaga dars bersam, sessiya vaqtida ular bilan juda ko'p ishlashga, o'zim bergan topshiriqlarni qabul qilib olishimga to'g'ri keladi. Ayni shu vaziyatda insoniylik faktori jihatidan charchashim,

vaqtim kamligi sababli ular bilan yengilroq ishlashga majbur bo'laman. Masalan, odatiy vaqtda kelgan talabaga 5 ta savol berib, talabani baholasam, ish vaqtim tugagan paytda ko'pchilik bo'lib kelishsa, kech bo'lib qolgani, kelgan talabalarni qaytarmaslik va boshqa sabablarni hisobga olib, 5 ta emas, 3 ta savol berishga majbur bo'lishim mumkin. Talabalar shunga odatlanib qolishganki, o'z vaqtida topshirsam menga biroz qiyin bo'ladi, boshqa talabalar qatori oxirida, ko'pchilik bilan topshirsam o'tib ketaman, degan fikr shakllanib qolgan.

Elektron platformalar orqali mustaqil ishlarni topshirish imkoniyatlari

Yoki professor-o'qituvchi yakuniy nazorat oladigan vaqtga bir soat qolganda, 30 nafar talabasi bor guruhdan 20 nafari mustaqil ish topshiramiz, deb kelishadi. Bunga jismoniy jihatdan ulgurishning iloji yo'q. Odatda biz talabalarga "o'ng ko'z" bilan qarab, ularga yordam berib, keyingi semestrda yaxshi o'qish sharti bilan odatda baho qo'yib beramiz. Balki bu bir tomondan bizni aybimizdir. Ammo buning yechimi bor, menimcha. Elektron platformalarga vazifalarni yuklab qo'yib, muddat belgilab qo'yish eng to'g'ri echim, deb bilaman.

Sirtqi ta'lim talabalari bilan o'tgan yildan boshlab modul, ya'ni test rejimida ishlash boshlandi. Bu test rejimi o'zini oqlayapti. O'quv-uslubiy bo'lim rahbari Abdulaziz Yusupov tashabbusi bilan boshlangan bu tizimning yaxshi tomoni talabalar mustaqil ishini istagan vaqtlarida topshirishlari mumkin. Ba'zan bitta ustoz uchun 100 nafarlab talabalar yig'ilib turganining guvohi bo'lamiz. Platformada esa talabalar vazifalarni uyda, vaqtlariga qarab bemaol bajarishlari mumkin. Qog'oz variantdagi ishlar bilan ustozning yonlariga kelishar, ularning vaqtiga qarab, yuzma-yuz topshirishadi. Bu qaysidir jihatdan ustozlarni ham charchatadi.

Ayniqsa, talabalar mustaqil ishga katta e'tibor berishlarini xohlardim. 2020-yildan buyon talabalarni kredit modul tizimida o'qitayapmiz. Bu tizimning asosiy urg'usi mustaqil ishga qaratilgan. O'quv soatlariga e'tibor qiladigan bo'lsak, avvallari bitta fan uchun 100 soat dars bo'lsa, shuning 60 foizi darsga, 40 foizi mustaqil ishga qaratilgan. Hozir buning aksi, 100 soatning 40 soati auditoriyada, 60 soati mustaqil ishga ajratilgan. Bizni aybimiz esa bunga ko'p ham e'tibor qaratmayotganimizda. Tavsiyam, professor-o'qituvchilar va talabalar mustaqil ishga ko'proq e'tibor qaratishlari kerak.

Axborot resurs markazlari va mustaqil ta'lim

Yetishib chiqayotgan kadr har tomonlama dunyoqarashi keng, kreativ fikrlay oladigan bo'lishi lozim, chunki bunday kadrda ehtiyoj baland. Shuni hisobga olgan holda axborot resurs markazlari, kitoblar yoki internet klublar orqali, amaliyot davomida talabalar o'zlari uchun yanada ko'proq bilim olishlari, chuqurroq izlanishlari kerak bo'layapti. Ammo hozirgi kunda auditoriyaga kelib, faqat ustoz tavsiya etgan bilimlar bilan cheklanishyapti. O'zlari uchun qo'shimcha hech qanday bilim egallashga harakat qilishmayapti. Achinarlisi esa, talabalarga hamma narsani ustoz aytib berishi kerak.

Bizni vaqtimizda ustozlarimiz "O'qituvchi yo'naltiruvchi, u hamma narsani biladigan emas, nimani qayerdan topishni biladigan odam", derdilar. Masalan, o'rganuvchida bir savol tug'ildi, o'qituvchi o'sha savolga javobni qayerdan va qay tartibda olishni tavsiya beradi.

Ammo filialda mustaqil ta'lim kutilayotganidek emas. Kredit modul tizimlari talab darajasida deb bo'lmaydi. Bu faqat bizda emas, barcha oliy ta'limda uchraydigan kamchiliklardan biri. Talabalar anglab yetishlari, moddiy-texnik bazani yaxshilash, internet bilan muammo bo'lmasligi uchun balkim, qanchadir vaqt kerakdir?!

Masalan, kutubxonaga kirish talaba uchun qulay bo'lishi kerak. Deylik, qishda issiq, yozda salqin bo'lishi, joylarda muammo va shovqin bo'lmasligi lozim. Kundalik ehtiyojlarni qondiruvchi elementar narsalarga e'tibor bo'lishi lozim. Yana bitta kamchilik, adabiyotlar masalasi. Bizda rus tilidagi adabiyotlar ko'p, ammo o'zbek tilidagi adabiyotlar

yetishmaydi. Yechimi yaqin yillarda topilar..

Tartibga intilish zarurati

Ustozlardan ba'zilari aytishadiki, ilm tartibni, intizomni yaxshi ko'radi. Darsga o'z vaqtida kelish, topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish, olingan ilmning yuqishiga sabab bo'ladi. Darsga kechikkan yoki topshiriqlarni topshirish vaqtidagi ko'ngilni xira qiluvchi holatlarning boshqa talabalarga ham ta'siri bor. Talabalar birinchi o'rinda intizom va tartibli bo'lishlari kerak.

Meni eng ta'sirlantirayotgani, ba'zi talaba-yigitlar g'urursiz bo'lib ketishyapti. Qaysi ma'nodaki, o'zlari darsga kelmasdan, topshiriqlarni qilmasdan, domlaga yalinib turishlari juda xunuk ko'rinayapti. Baho uchun, yoki 3 bahoni 4 qilish uchun yalinish o'g'il bolaga yarashmaydi. Past baho olib qolishsa, birinchi martasiga ustoz bilan tortishib, bahosiga norozilik bildirishadi. Olingan bahoda o'zining xatolarini ko'rgach, sekin yalinishga o'tadi. Ishlashi, sharoiti va ijarada ekanligini ro'kach qilishadi. Shu borada ustozimiz Zarif Sharipovich: hech kimga yalinma, hech kimdan so'rama, hech kimga berma, derdilar doim. Ya'ni yalinishga sabab qoldirmaslik, yalinmaslik, hamma narsani o'z vaqtida qilish lozimligini aynan yuqoridagi jumlar bilan chiroyli qilib izohlardilar.

Ko'p talabalar ishlashadi. Ayniqsa, kechki va sirtqi bo'lim talabalari. Ammo maqsadlari o'qish bo'lgandan keyin, albatta, o'qishlari kerak. Biroq ular topayotgan pullariga qiziqibmi yo dangasalikmi, o'qishni ikkinchi darajaga tushirib qo'yayotgan holatlar kuzatiladi. Shuning uchun ularga aytadigan gapim, hozir yaxshi o'qing, ilm egallang, shunda olgan ilmlaringiz natijasida, kelajakda hozirgi topayotgan pulingizdan-da ko'prog'ini topasiz. Ko'p yoshlar hozir topayotgani kundalik hayotiga yetib turgandanni, o'qishga nisbatan sustlashib qolishadi.

Aslida 20-22 nafar talabasi bor guruhlarda haqiqatda o'qiyotgan, asosiy maqsadi o'qish bo'lgan talabalar soni uzog'i bilan 5 nafarni tashkil qiladi. Qolganlarining maqsadi esa diplom, xolos. Diplom uchun o'qiyotganlarni ham aslida ayblash noto'g'ridir. Chunki yaqin-yaqingacha davlat korxonalarida xodimning ishini yaxshi uddalay olishi emas, diplomini birinchi daraja bo'lgan. Shuning uchun xalqimizda "diplom bo'lsa, muammo hal", degan tushuncha shakllanib qolgan. Ammo hozir birinchi o'rinda kadrning ko'nikmalari va salohiyatiga e'tibor qaratilayapti.

Telefondan oqilona foydalanish va «Telefonsiz kun» tashabbusi

Telefondan foydalanish masalasi ham ayni kundagi dolzarb masala. Ba'zan o'zim ham talabalarga telefonda qaranglar, topinglar, deyman. Shu orqali rag'batlantirish yo'llarini qidiraman. Lekin telefonda oqilona foydalanish kerak. O'yin dars vaqtida o'ynalmasligi darkor.

Hozirgi taklifim yo tavsiyam, buni imkoni bormi, yo'qmi bilmadim. Ammo oyda yoki haftada bir «Telefonsiz kun» heshtegi ostida bir kun o'tkazilsa, talabalarga ham foydali bo'lar edi. Talabalar bir-birlari bilan kam gaplashadi. Bu kun esa talabalarni ham bir-birlariga yanada yaqin qilishga xizmat qilishi mumkin. Pichoq to'g'ri ishlatsangiz uy-ro'zg'or anjomi, ammo yomon qo'lda u sovuq qurol. Huddi shu kabi telefon ham yaxshi maqsadlar uchun yordamchi vosita, umrni va vaqtni unga batamom sarflash umr zavolidir.

Talabalarga yaxshi o'qish uchun tavsiyalar qisqa satrlarda:

- **Mehnatsevarlik;**
- **Ilm olishda qunt va tirishqoqlik;**
- **Ma'lumotlarni quruq yodlash emas, uni tahlil qilish va mohiyatini tushunib olish;**
- **So'rashdan uyalmalik (savol so'rovchining saviyasini bildiradi, shuning uchun avvalo kitob va boshqa manbaalarga murojaat qilib, ustozdan tasdiqlatish ma'qul);**
- **Mas'uliyatli bo'lish.**



Mustaqillik imorati



Boshi 1-betda

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialining talabalar turar joyi qurilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentyabrdagi 563-sonli qaroriga asosan amalga oshirildi. Davlat-xususiy sheriklik asosida qurib foydalanishga topshirilgan talabalar turar joyi 500 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, mazkur ob'jekt qiymati 25,9 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Qurilish-ta'mirlash ishlarini "New-Brend-House" mas'uliyati cheklangan jamiyat amalga oshirdi. Belgilangan mablag'ning 46,2 % subsidiya, 53,8% tadbirkorning o'z mablag'i hisobidan realizatsiya qilindi. Besh qavatdan iborat binoda 142 ta xona mavjud bo'lib, har bir xonaga 3 nafar talaba joylashishi mo'ljallangan. Dars qilish, kiyim-kechak va yotoq mebellari, shuningdek ko'rpa-to'shak hamda

choyshablari bilan to'liq ta'minlangan. Binoda suv ta'minoti, issiqlik, yoritish, kanalizatsiya tizimlarining sifatli ishlashi yo'lga qo'yilgan.

Talabalar turar joyi binosining pastki qismida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga mo'ljallangan sport to'garaklari, karaoke xonalari va boshqalarni tashkil etish ishlari amalga oshirish jarayonida.

Davlatimiz rahbarining olib borayotgan ulkan islohotlari natijasida yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar ularning chuqur bilim olishlari, yetuk kadr bo'lib shakllanishlariga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

28 avgust kuni bo'lib o'tgan talabalar turar joyi binosining ochilishi tadbirida filial jamoasi, shahar hokimligi, sektor rahbarlari, shahar nuroniylar kengashi vakillari va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi.

TA'TIL – YANGI KO'NIKMALAR VA YUTUQLAR UCHUN IMKON

Ta'til – har bir talaba hayotidagi muhim davrlardan biri. Bu vaqtda talabalar o'qishdan ozod bo'lib, o'zlarini yangi qobiliyatlar va qiziqishlarga bag'ishlaydilar. Kimdir o'z vaqtini yaqinlari bilan o'tkazadi, boshqalar esa chet elga sayohat qilishni afzal ko'radi. Ayrimlar esa ta'tilni ishlash va kelajak uchun tajriba to'plash imkoniyati sifatida qabul qiladi. Shunga qaramay, ta'til nafaqat dam olish, balki kelajakka tayyorgarlik davri hamdir.

Talabalarining ba'zilar ta'tilni o'z bilimlarini mustahkamlash uchun foydalanadilar, yana bir qismi esa jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanib, sog'lig'ini tiklaydilar. Bu davr har bir talaba uchun o'ziga xos bo'lsa-da, uning asosi – yoshlik davrining samarali va ma'naviy boy davri sifatida namoyon bo'lishidir. Har bir talaba o'z ta'tilidan foydalanib, yangi bilimlar olish va kelajakdagi maqsadlariga erishish uchun qo'shimcha qadam tashlaydi.

Biz yozgi ta'tilni mazmunli va maroqli o'tkazgan, eng muhimi foydali ishlarga vaqtini sarflagan ayrim talabalar fikri bilan qiziqdik. Ular nimalar bilan band bo'lganliklarini fotosuratlar bilan taqdim etishdi.



Dam olishdan rivojlanishgacha...



*Lilola Anarbayerova,
9B-23 TM Guruh talabasi.*

- Yozgi ta'til kunlari ham tugab bormoqda. Men o'qish va sessiya tashvishlaridan keyingi sokin yoz ta'tilini qanday o'tkazdim?

Ha, yozgi ta'til barcha uchun bolalik davrlaridan beri o'qishsiz maroqli hordiqni esga soladi. Ammo inson ulg'aygani sari katta hayotga qadam bosadi. Ta'tillar esa borgan sari qisqarib boraveradi. Ish faoliyati turidan kelib chiqib berladigan ta'tillar hozirgi ta'tilimizdan ham qisqa bo'lishi mumkin.

Men esa yozgi ta'til mobaynida o'qib izlanishdan to'xtamadim. Vaqtimni maroqli va samarali o'tkazish maqsadida nemis tili darsi va feldsherlik kursiga qatnadim. To'g'rirrog'i hali ham qatnayapman. Undan tashqari uydagilarga uy ishlarida yordam berayapman.

Yozgi ta'til men uchun

sayohatlar mavsumi, chunki yoshligimdan oilamiz bilan yoz faslida yurtimizning turli viloyatlariga, tarixiy joylariga, tog' va suvli maskanlariga sayohat qilib kelamiz, bu an'anaga aylangan, desam ham bo'ladi. Qarindoshlarimizni ko'rgani bordik. Talabalik davrida yoz faslini qo'shimcha narsalarni o'rganishga, vaqtimni to'g'ri taqsimlashga harakat qilayapman, masalan, turli chet tillarini o'rganish, zamonaviy digital kasblarni ham o'rganib bormoqdaman. Fikrimcha, yo'nalishi va kasbidan qat'iy nazar, har bir yosh avlod ushbu digital kasblardan hech bo'lmaganda bittasini bilishi kerak. Bu, albatta, kelgusida kerak bo'ladi!

Asosiysi yozgi ta'til men uchun unumli bo'ldi. Vaqtim bekorga telefonga tikilish bilan o'tmadi, shundan xursandman.

Sarguzashtlar, o'yinlar va unutilmas xotiralar



*Karinabonu Akbarova,
11a-23 KT Guruh talabasi.*

Yozgi ta'tilim juda maroqli o'tmoqda. Bu yilgi ta'til davomida ko'plab sarguzashtlar boshimdan o'tdi. Har xil to'garaklarga qatnashib, yangi do'stlar orttirdim va ko'plab qiziqarli mashg'ulotlar bilan shug'ullandim. Ushbu to'garaklarda nafaqat yangi bilimlar oldim, balki ijodiy qobiliyatlarimni ham rivojlantirdim.

Oilamiz bilan tog'larda joylashgan dachalarga borib, tabiat qo'ynida dam oldik. Tog'larning sokinligi va toza havosi bizga chinakam huzur bag'ishladi. Oilaviy dam olishlarimiz har doim unutilmas xotiralar bilan yodda qoladi.

Qolgan kunlarim ham maroqli va samarali o'tmoqda, chunki uyimizda uy bog'chamiz bor. Men bolalarga turli to'garaklarda murabbiylik qilmoqdaman. Bu faoliyat menga katta zavq bag'ishlaydi, chunki bolalarning yangi narsalarni o'rganishlari va ularning qiziqishlarini ko'rish men uchun katta mamnuniyat.

Yozgi ta'til men uchun oddiy kunlar kabi o'tib ketmadi. Aksincha, har bir kuni qiziqarli va unutilmas xotiralar bilan boyidi. Bu ta'til men uchun haqiqatan ham maroqli, foydali va esda qolarli bo'ldi.

Va, albatta, ta'til davomida grafik dizaynni o'rganishga ham vaqt ajratdim. Yangi dizayn konsepsiyalari, ranglarning muvofiqlashtirilishi va vizual estetikani shakllantirish bo'yicha bilimlarimni boyitdim. Bu jarayonda turli dasturlar bilan ishladim va o'zim uchun yangi ijodiy imkoniyatlarni kashf qildim.

Ta'tildagi kunlarim juda qiziqarli va samarali o'tdi. Bu vaqt nafaqat dam olish, balki yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun ham ajoyib imkoniyat bo'ldi. Bu ta'til men uchun haqiqatan ham ma'naviy va jismoniy jihatdan boy davr bo'ldi – tana ham, aql ham birdek kuchlandi. Ushbu ta'tilda o'rganganlarim kelgusida katta yutuqlarga erishishim uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi aniq.

Shunday qilib, ta'til men uchun nafaqat dam olish, balki intellektual va jismoniy rivojlanish imkoniyati bo'ldi. Har bir soha bo'yicha ko'nikmalarimni mustahkamlab, kelajakda ularni amalda qo'llashga tayyorman.

Men yozgi ta'til vaqtini qiziqarli va unumli o'tkazayapman. O'quv amaliyotidan ta'tilga chiqqach, portfelimni quchog'lab, to'g'ri ingliz tili kursiga bordim. Ehee, yozgi ta'tilda ham o'qiyapmanmi, dam olmaysanmi deyishingiz mumkin. To'g'ri dam olshim kerak, lekin dam olib yotaversam, ingliz tilidan IELTS 8 darajani dam olmayotganlar ilib ketadi-da.

Har sohadan bir shingil deganlaridek, yozgi ta'tilda ijod ham meni yolg'iz qoldirmadi. Reklama roliklariga suratga tushdim va dublyaj jarayonlarida qatnashdim va bir qancha ijodiy ishlar tayyorladik.

Bulardan bo'sh vaqtimda yana bir ishim, ya'ni to'y va marosimlarda

stol bezatish va karvin bilan shug'ullandim. U ham bir san'atda, stolga qanchalik mehr bersangiz, shunchalik go'zallashaveradi.

Ha aytganday, bu ta'til menga juda unumli keldi, men o'zumni kichik biznesimni boshladim. Biznesim shuki, biz to'y osh va boshqa marosimlarga 12 xil turdagi quruq mevalar va ichimliklarni ijaraga beramiz. Juda qulay va hamyonbop, xaridor faqat iste'mol qilingan mahsulot uchungina pul to'laydi.

Shunchasini bozordan sotib olib, to'ydan keyin bolalaridan berkitib, so'ng qurt yedirib, tashlab yuborgandan ko'ra, keraklisiga pul to'lash ancha arzoniga tushadi. To'y va bazm uyushtirayotgan

"Har sohadan bir shingil"



*Bunyod Mahmudov,
Metallurgiya va kimyoviy
texnologiyalar fakulteti talabasi.*

hamyurtlarimizni o'ylab qildim-da bu ishni (hazil). Undan tashqari marosimlar uchun barcha xizmatlar mavjud.

Hullas, gapirsam gap ko'p, ishim esa undan ko'p.

Ta'til: dam olish va rivojlanishning mukammal muvozanati



*Farrux Jurayev,
8-21 TM Guruh talabasi*

Ta'tilda vaqtimni nafaqat dam olishga, balki rivojlanishga ham bag'ishladim. Ertalablari sport zaliga borishni odat qildim. Har kuni bir necha kilometr yugurib, so'ngra kuch-quvvatni oshiruvchi mashqlarni bajardim. Jismoniy faollik va salomatlikni saqlash uchun sport bilan shug'ullanish muhimligini yaxshi tushunaman. Har kuni tanamni tarbiyalab, yangi kuch-quvvatga to'lib, o'zimni yaxshi his qildim. Buning yonida, "Quyosh" stadionida kunora yugurib, nafas olish tizimimni yaxshiladim va yugurish ko'nikmalarimni rivojlantirdim. Buning natijasida tanam kuchayib, energiya darajam sezilarli darajada oshdi.

Sportdan keyin esa dasturlashga vaqt ajratdim. Yangi dasturlash tillarini o'rgandim, kod yozish texnikalarimni mukammallashtirdim va yangi loyihalar yaratdim. Shuningdek, yangi dasturlar yaratish va mavjud tizimlarni yaxshilash bo'yicha bir qator amaliy mashqlarni bajardim. O'rgangan dasturlash tillarini real loyihalarda qo'llash orqali bilimlarimni mustahkamladim. Bu faoliyat menga nafaqat aqliy zo'riqishni, balki ijodiy yondashuvni ham o'rgatdi.



KELAJAK SARI BIRINCHI QADAM

Shunchaki oddiy va hech kimning e'tiborini tortmaydigan qizning orzular ummoniga g'arq bo'lgan vaqtlarida ham, yoki bo'lmasa barcha o'ylagan rejalarining aksini ko'rgan vaqtlarida ham unga shunchaki kichik narsalar turtki bo'lishi mumkin. Mana shunday turtkilardan biri menda ham sodir bo'ldi. Men Husniddinova Ominaxon shunchalar umid bilan ishonch bilan harakat qilgan, lekin mag'lubiyatga uchragan o'sha tanlov "Mirzo Ulug'bek vorislari" hayotimda o'chmas iz qoldirdi desam, adashmagan bo'laman. Bungacha umuman ko'zimga ko'rinmagan xatolarim

sekin- astalik bilan yuzaga qalqib chiqib kelmoqda. Bu yoz avvalgilaridek oddiy va sokin o'tmaganining ham ayni sababi shunga borib taqaladi.

Bu safar men o'z ustimda ko'proq ishlashga muvaffaq bo'ldim. Bu vaqt ichida chet ellik tanishlar, do'stlar orttirishga ham ulgurdim. Aynan shu vaqtga kelib qo'limda qanday imkoniyatlarim bor ekanligini bildim va shu imkoniyatlarni qanday usul, harakatlar bilan yo'lga qo'yishni o'rgandim.

Bundan tashqari meni chet mamlakatlariga bo'lgan qiziqishim yanada oshdi. Ayni shu qiziqishlarimning ortishiga sabab bo'lgan tadbir bu "Yaponiya-

O'zbekiston" forumi bo'ldi. Bu forumda qatnashgandan so'ng asta-sekinlik bilan chet tillarini o'rganishni ham boshladim. Forum Bo'stonliqda o'tkazildi. Forum doirasida men o'zim uchun Yaponiya oliy ta'lim muassasalari haqida ma'lumotlarga ega bo'dim.

Bunday forumlardan keyin inson o'zidagi yashirinib turgan qobiliyatlarini qidirishga, ilm yo'lga o'z hayotini baxsh etgan insonlar hayotiga o'rganishga sarflasa kerak. Yozda erishgan eng yaxshi yutug'im esa bir qancha yangi g'oyalar dunyoga keldi.

TALABA IQODIDAN

VATAN, SENI SEVAMAN

Vatan, seni sevaman,
Sensan mening makonim,
Ilk qadamim bosgan joy,
Vatan, seni sevaman!

Kindik qonim to'kilgan,
Har bir yering tillodir,
Ajdodlarim yodi bor,
Vatan, seni sevaman!

Bolalarning sho'x kulgusi,
Keksalarning boy duosi,
Sening uchun yaralgan.
Vatan, seni sevaman!

Ajdodlaring dunyo bilar,
Yoshlaringni dunyo ko'rar,
Hamma senga havas qilar,
Vatan, seni sevaman!

Sensan mening hayotim,
Yozilmagan dostonim,

Shiringina orzuyim,
Vatan, seni sevaman!

Farzandlaring qalqondir,
Yigitlaring pospondir,

Qizlaring oyjamoldir,
Vatan, seni sevaman!

Keksalarning ardog'isan,
Ishongan bir tog'isan,
Ming yillik bir chinorsan,
Vatan, seni sevaman!

Juda go'zal zaminsan,
Jannatmakon o'lkanan,
Dunyo seni tan olar,
Vatan, seni sevaman!

Otam-onam baxtimsan,
Omadliman, taxtimsan,
Vatan, seni sevaman!
O'zbekiston - baxtimsan!

Shahlo JAPPOROVA
Energetika va mashinasozlik fakulteti
talabasi

USTOZLAR UCHUN

Baxshida etasiz umringiz bizga,
Ta'zim aylagaymiz bir umr sizga.
Qalbimizda sizga, ko'p juda mehr
Aytgan har so'zingiz go'yoki sehr.

TALABA

Fursat yetdi, uyg'on talaba,
Millat kutar, sendan g'alaba.
Temur o'tdi, o'tdi Buxoriy,
Tulpor kutar mohir suvoriy.

Turon zamin, porlagan mudom,
Qahramonin qo'llagan har on.
Xalqing kutar sendan g'alaba,
Millatni yetakla, uyg'on talaba.

JON OPAM

Yuzi nurli mehribon
Gavharimsiz jon opam
Qalbi toza nurafshon
Jannatimsiz jon opam

Ilm nurin bizga ulashib tinmay,
Yonib kuyib bizga o'rgatib savod.
Har bir shogirdidan mehrin ayamay,
Bir dunyo she'rlarni ettirdingiz yod,

Har aytgan so'zida ma'no mujassam,
Yetaklab yuksakka zafarlarga ham.
Kelajakka bizda maqsadlar katta,
Ishonchni oqlaymiz bizlar albatta!

Yo'ldasheva Nilufar

Tun zulmati etsa gar davom,
Ne qilishin bilmasa avom.
Osmonimga quyosh, talaba,
Yurtboshimga izdosh talaba.

Qo'rzoqlaring sendan kechganda,
Shoqollaring tishlab qochganda,
O'z xalqiga qalqon talaba.
Yov ustiga arslon talaba.

Asadbek SABRLI
Energetika va mashinasozlik fakulteti
talabasi

Alloh bergan mo'jiza
Solihamsiz jon opam
Dard kelsa gar boshimga
Himoyachim jon opam

Onam kabi mehribon
Munisamsiz jon opam
G'am tashvishni sirlashgan
Sirdoshimsiz jon opam

Yomon kunda tirgagim
Dardgo'yimsiz jon opam
Yaxshi kunda hamrohim
Dur gavharim jon opam

ABDUJABBOROVA HABIBA

Kitobxonlik

**NOILA ANORBOYEVA,
IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATINI TASHKIL ETISH
BO'LIMI BOSHIG'I.**

Kitobxonlik insonning aqliy va ma'naviy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Kitob o'qish orqali biz dunyoni kengroq tushunamiz, fikrlash ko'nikmalarimizni rivojlantiramiz va bilimlarimizni boyitamiz. Yaxshi kitoblar bizga yangi g'oyalar, turli qarashlar va ilmiy tafakkurni tushunish imkonini beradi. Kitobxonlik insonda hamdardlik, mulohaza qilish va o'z-o'zini tanqid qilish qobiliyatlarini ham oshiradi. Bundan tashqari, kitob o'qish zehnimizni mustahkamlashga, diqqatni to'plashga va e'tiborli bo'lishga yordam beradi. Kundalik hayotda kitob o'qishni odat qilish, ma'naviy boyishga va yangi ilmlar kashf qilishga yordam beradi. Shuning uchun kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va unga e'tibor berish har bir inson uchun muhimdir.

TDTU Olmaliq filialida ham kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida yozgi ta'til kunlari "Zukko kitobxon" tanlovi tashkil etildi. Tanlov doirasida har hafta kitoblar nomi e'lon qilinmoqda. Xususan, Paulo Koeloning "Alkimyogar", Muhammad Alining "Sarbadorlar", Jorj Oruellning "1984" asari, O'tkir Hoshimovning "Ikki karra ikki — besh", Said Ahmadning "Jimjitlik", Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" kitoblari filialning rasmiy telegram kanaliga joylangan. Ushu kitoblar bo'yicha professor-o'qituvchilar va talabalar kitob bo'yicha qilgan annotatsiyalari ham berib borilmoqda.

Tanlovning final bosqichi kuz oylarida o'tkazilib, unda g'olib bo'lganlar quyidagicha taqdirlandi:

1- o'rin – 100 ta kitob

2- o'rin – 50 ta kitob

3- o'rin – 30 ta kitob.

Bu targ'ibot natijasida kitobxonlar o'z kutubxonalarini boyitish bilan birga, ma'naviy boylik egasiga ham aylanadilar.

Taqriz

Chingiz Aytmatov «Birinci muallim»

Gazetaning ushbu sonidan boshlab kitobxonlik targ'iboti sifatida professor-o'qituvchilar hamda talabalar uchun kitob tavsiyasi sifatida o'qilishi lozim bo'lgan kitoblar uchun annotatsiya berilib boriladi. Bu galgi sonda Chingiz Aytmatovning «Birinci muallim» asari taqrizi o'qish uchun tavsiya etiladi.

Ota-ona insonni dunyoga keltirib, voyaga yetkazsa, ustoz ma'naviy ongni shakllantiradi, ziyoli qilib tarbiyalaydi. Shuning uchun ham, «ustoz - otangdek ulug'» deyishadi.

Hazrat Navoiy aytganlaridek, bir harf o'rgatgan ustozning haqini «ming ganj» bilan ado etmoq mushkul.

«Birinci muallim» qissasi bosh qahramoni Oltinoy ham birinchi muallimi Dyushenni, uning ilm yo'lida, Oltinoyning kelajagi uchun chekkan jafolarini bir umr unutmadi.

Qissa Oltinoy tilidan aytiladi. U yetimlikda qabohat botqog'iga botgan kelinoyisi va amakisining zulmidan aziyat chekib, 15 yoshida, farzandlari o'zidan katta bo'lgan erkakning ikkinchi ayoli bo'lishga majbur etilgan, sof tuyg'u - ilk muhabbatini bir umr qalbida pinhon tutgan, ustozining ishonchi-yu say-harakati bilan barcha havas qiladigan olima darajasiga yetishdi.

Qissani o'qisangiz, bugungi to'kin-sochin, zamonaviy texnologiyalar va barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan davrda yashashimiz bizning asl baxtimiz ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz!

Qissa 1920-yildan 1962-yilgacha bo'lgan voqealarni qamrab olgan; qiyinchiliklar, kishilar ongi hali ilm, xat-savod nimaligini yaxshi tushunib ulgurmagan davr tasviri bir ovul misolida ajoyib ko'rsatilgan. O'zi ham so'zlarni harflab zo'rg'a o'qiydigan, bir - ikki ma'lumotdan boshqa hech narsani bilmaydigan Dyushen, millat yoshlari yurt ravnaqi uchun ilm olishini chin dildan xohlaydi va harakat qiladi. Eski molxonani maktabga aylantirish, har tong o'quvchilarni uyma-uy yurib darsga chorlash, qishda ko'priksiz daryodan bolalarni yelkasida ko'tarib olib o'tishi; bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan bo'lgan «qizlar orasida erta turmush»ga qarshi o'sha davrlarda olib borilgan kurash qissani o'qigan kitobxon qalbida ustozlarga bo'lgan hurmatni yana bir oshirishiga aminman. Huddi shuningdek, o'z vazifasiga e'tiborsiz qaraydigan ba'zi «ustozlarimiz»ga o'rnak bo'lishiga ishonaman!

«Birinci muallim» qissasini barcha yoshdagi ustoz va shogird bo'lgan kitobxonlarga tavsiya qilamiz.

Asarni o'qish davomida, ilm yo'lida umrini baxshida qilgan ustoz; zalolat botqog'idan, ilm cho'qqisiga chiqqan shogird Oltinoy kechmishi har biringizning qalbingizda o'zgacha hissiyot uyg'otishiga ishongan holda maroqli mutoala tilaymiz!



Ahadquli Xolmuhammad o'g'li: "Haqiqiy omad kaliti yoxud savdogarlar ustozlari"

Avvalo bu asarni o'qish uchun qo'lga olar ekanman, "Savdogarlar haqida, tijorat haqida menga ma'lumotlar kerakmi?" degan savol tug'ildi... Ammo o'qib bo'lgach, "...

shu vaqtgacha nega bu kitobni o'qimaganman?", degan o'y qiynadi meni. Sababi bu foniy dunyoda moddiy kerak emas, boylar ziqna va xasis bo'lishadi, komillikka boylar erisha olmaydi, deb fikrlar edim.

Asar keng kitobxonlar kabi mening ham dunyoqarashimni o'zgartirib yubordi. Iymoni butun, qalbida Alloh bo'lgan inson uchun har qancha boylik - ilm, ezgulik yo'lida bir vosita bo'lishi asar qahramoni Abdulloh ibn Muborak misolida juda go'zal bayon etilib, hadislar bilan isbotlab o'tilgan. Asar boshidayoq o'zi mehnat qilib yetishtirgan uzumlarining qay biri totliroq ekanligini, xojasi ruxsat etmaganligi uchun bilmaydigan darajada halol, o'z zuriyodini dunyoga keltirishdan avval juftini rosa qirg kun halol luqma ila oziqlantirib, unga qiyo ham boqmagan pok qalb, toza vijdon egasi Muborak haqida, keyingi voqealarda uning o'g'li Abdullohning hayoti sodda tilda yozilganligi kitobxonni qiziqishini yanada orttiradi.

Asarning mazmuni boylik to'plab, uni ilmga sarmoya qilib kiritish, bu orqali musulmon birodarlarni dunyo qarashini kengaytirib, islom dinining mavqecini yanada mustahkamlash. Qolaversa, chin do'stlik, halollik, farzand tarbiyasi, savdo-sotiq sohasidagi munosabatlar haqida yoritilgan, bir so'z bilan aytganda, kitobxon nimani izlarsa ortig'i bilan topadigan asar deyish mumkin.

Men ham kitobdan o'zim uchun juda ko'p hayotiy shiorlar va xulosalar oldim. Masalan, "Omad-omadsizlar qilishni xohlamagan ishni qilishdir", "kimning maqsadi bo'lmasa, maqsadi borlarga xizmat qiladi", "ilojsizlik-foydadan imkon emas", "halol yasha tinch uxlaysan" va hokazolar. Asarni o'qir ekansiz bu shiorlar ostida juda go'zal voqealar keltirib o'tilganki, sizga o'rnak bo'lmay qolmaydi, masalan, bir yil mehnat qilib qizi va ayoli uchun munosib sovg'ani 100 dinorga olmoqchi bo'lgan otaxonning tanlagan matosi 300 dinorligini bilgan Abdulloh do'konda bunday mato qolmanligini, ombordan keltirib berishini aytadi va o'zga do'kondan 300 dinorga olib kelib, 100 dinorga berib yuboradi. Sababini so'ragan Abdusalomga esa, agar men otaxonga so'ragan narxida bermasam, boshqa joydan bu narxga topa olmaydi, oqibat o'ziga bo'lgan ishonchi so'nishi, qalbi vayron bo'lishi yoki yana bir yil tinimsiz ishlashiga to'g'ri kelar edi deydi. Yana bir kuni esa, Abdulloh mehmon kutishga sharoiti bo'lmagan, kasal akasi bilan yolg'iz qolgan qizning, keyingi gal mehmonlarning oldida uyalib qolmasliklari uchun haj safariga atalgan pullarni ikkilanmay berib yuborganligi aytiladi.

Abdulloh ilm uchun juda ko'p pul sarflaydi bundan havotir olgan hisobchi, g'aznada pul tugayapti deb ogohlantirganida, "havotir olma Sodiq, umr ham tugayapti..." - deb javob berishi kishini o'zgacha to'liqlantirib yuboradi. O'qigan odamni behosdan shu kungacha qancha ilm oldim-u, ilm yo'lida qancha sarmoya kiritdim, deb o'ylantirib qo'yadi.

Xulosa o'rinda shuni ishonch bilan aytamanki, hech bir kitobxon asarning aynan mana shu qismi zo'r yozilgan deya olmaydi!

Chunki, asarning boshidan oxirigacha, hayotiy voqelik, qalbida Olloh bo'lgan musulmonlarning yurak-yuraklarigacha yetib boradigan darajada ta'sirli yozilgan...

"Savdogarlar ustozlari" asarini kitobxonlarga tavsiya etar ekanman, asarni o'qib tugatgach mening quyidagi to'rt savolimga javob bering der edim:

Aytingchi, siz Muborak kabi halol insonmisiz? Abdulloh kabi o'n beshinchi bor haj safaridan qaytish sizning qo'lingizdan kelarmidi? Yoki Sodiqdek sodiq hisobchi, Abdusalomdek chin do'st bo'lishchi? Javob berish qiyin a?! Men ham "ha" deyishga urinyapman-u, sizni aldab vijdonim qiynalishidan qo'rqayapman...

O'z ustimda hali ko'p ishlashim kerak ekan!